



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
DAVLAT STATISTIKA QO'MITASI

## 2019-yil 1-noyabr holatiga yuridik shaxs bo'lgan korxonalar va tashkilotlar demografiyasi bo'yicha tahliliy ma'lumot



## 2019-yil 1-noyabr holatiga yuridik shaxs bo'lgan korxonalar va tashkilotlar demografiyasi bo'yicha tahliliy ma'lumot<sup>\*)</sup>

*O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi ma'lumotlar bazasi asosida shakllantirildi*

Mamlakatimizda qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'rnida, tadbirkorlik sub'ektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tadbiiq qilinmoqda. Bu esa aholi hamda xorijiy sarmoyadorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

2019-yilning yanvar-oktabr oylarida Respublikamizda 82,6 mingtaga yaqin korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi, bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 35,4 mingtaga ko'pdir.

Natijada, ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar soni o'tgan yilning shu davriga solishtirilganda 75,1 mingta (22,5 %) ga o'sgan hamda ularning umumiy soni 409,4 mingtani tashkil etgan.



<sup>\*)</sup> fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari


## Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2019-yilning 1-noyabr holatiga ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar soni 409,4 mingtaga yetib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 22,5 % ga o'sgan. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 25,0 % savdo, 17,7 % sanoat, 9,2 % qurilish, 7,5 % qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 6,5 % yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar, 3,9 % tashish va saqlash, 2,0 % axborot va aloqa, 1,9 % sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish hamda 26,3 % boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

## Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlarning ulushi

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



## Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)


	Umumiy soni, ming birlik		01.11.2019 yil	
	01.11.2018 yil	01.11.2019 yil	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, %	Jamiga nisbatan, %
<b>Jami</b>	<b>334,3</b>	<b>409,4</b>	<b>122,5</b>	<b>100,0</b>
<i>shundan:</i>				
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	25,7	30,6	118,8	7,5
Sanoat	58,1	72,6	125,0	17,7
Qurilish	29,9	37,6	125,9	9,2
Savdo	74,0	102,3	138,3	25,0
Tashish va saqlash	13,6	15,9	116,7	3,9
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	20,7	26,6	128,5	6,5
Axborot va aloqa	7,3	8,3	114,0	2,0
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	6,8	7,9	116,4	1,9
Boshqa turlari	98,2	107,6	109,5	26,3

Hududlar bo'yicha ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar soni eng ko'pi Toshkent shahri (85 366 ta), Toshkent (43 045 ta), Farg'ona (35 374 ta), Andijon (32 947 ta) va Samarqand (32 512 ta) viloyatlari hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha, Sirdaryo (13 119 ta), Navoiy (16 708 ta) hamda Jizzax (17 823 ta) viloyatlarida korxonalar soni kamligini kuzatish mumkin.

## Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)


Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni 391,0 mingtani tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga solishtirilganda 72,7 mingtaga (22,8 %) o'sgan.

## Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar ulushi (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Hududlar kesimida qaralganda, faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni eng ko'pi Toshkent shahri (82 005 ta), Toshkent (37 664 ta), Farg'ona (34 891 ta), Andijon (31 600 ta) va Samarqand (30 881 ta) viloyatlari hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha, Sirdaryo (12 328 ta), Navoiy (16 316 ta) hamda Jizzax (16 994 ta) viloyatlarida korxonalar soni kamligini kuzatish mumkin.


**Hududlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan  
korxonalar va tashkilotlar soni, birlikda**  
*(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*



## Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)


2019-yil yanvar-oktabr oylarida 82 622 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etilgan bo'lib, bu ko'rsatkich 2018-yilning shu davriga nisbatan 1,8 martaga ko'pdir.

## Yanvar-oktabr oylarida yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning yillar kesimida soni, birlikda (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning asosiy qismi Toshkent shahri (16 479 ta), Toshkent (8 350 ta), Samarqand (7 050 ta), Farg'ona (6 366 ta), Buxoro (5 614 ta), Navoiy (5 968 ta), Andijon (5 534 ta), Namangan (4 960 ta) va Qashqadaryo (4 894 ta) viloyatlari hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha, Sirdaryo (2 345 ta), Jizzax (3 330 ta), Surxondaryo (4 018 ta), Xorazm (4 340 ta) viloyatlari hamda Qoraqalpog'iston Respublikasida (3 374 ta) korxonalar va tashkilotlarni tashkil etish ko'rsatkichi past darajani aks ettirgan.

**2019-yilning yanvar-oktabr oylarida yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni, birlikda**  
*(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*



**2019-yilning yanvar-oktabr oylarida yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimidagi soni, birlikda**  
*(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida, eng ko'pi savdo (30 639 ta), sanoat (17 059 ta), qurilish (7 823 ta), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi (6 032 ta) tashkil etilgan. Eng kami esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish (1 180 ta), axborot va aloqa (1 419 ta), tashish va saqlash (2 612 ta) hamda boshqa faoliyat turlari (9 797 ta) hissasiga to'g'ri keladi.


### Tashkiliy-huquqiy shakllari tasniflagichi bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalarining umumiy soni, birlikda

*(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*

2019-yil 1-noyabr holatiga 330,2 mingta tijorat shaklidagi korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, shundan xususiy korxonalar - 83,8 mingta, oilaviy korxonalar - 25,2 mingta, mas'uliyati cheklangan jamiyatlar - 214,4 mingta va boshqalar 6,8 mingtani tashkil etgan.

### Tashkiliy-huquqiy shakllari tasniflagichi bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalarining umumiy soni, birlikda

*(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*




**Hududlar kesimida oilalar va  
tadbirkorlik subyektlari soni, birlikda**  
*(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*

	Oilalar Soni <sup>*)</sup>	Tadbirkorlik subyektlari soni	
		01.11.2018 yil	01.11.2019 yil
<b>O'zbekiston Respublikasi</b>	<b>8 489 671</b>	<b>260 815</b>	<b>330 177</b>
Qoraqalpog'iston Respublikasi	402 427	11 854	14 557
<i>viloyatlar:</i>			
Andijon	792 250	22 601	26 786
Buxoro	512 987	14 585	19 550
Jizzax	301 867	10 996	13 858
Qashqadaryo	737 968	16 553	20 141
Navoiy	261 472	8 856	14 221
Namangan	693 905	17 119	21 081
Samarqand	916 096	19 197	25 330
Surxondaryo	597 840	11 838	15 112
Sirdaryo	207 533	8 192	10 238
Toshkent	806 176	25 079	32 044
Farg'ona	985 771	23 002	29 013
Xorazm	494 130	11 732	15 184
Toshkent sh.	779 249	59 211	73 062

*\*) 2019 yil 1 yanvar holatiga tumanlar (shaharlar) fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatini muvofiqlashtirish bo'yicha kengashlari ma'lumotlari asosida jamlangan.*

**Hududlar kesimida har 1000 oilaga to'g'ri keladigan  
tadbirkorlik subyektlari soni, birlikda**  
*(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*



### Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar

Ro'yxatdan o'tgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 2019-yilning 1-noyabr holatiga 223 648 tani tashkil etib, ulardan 214 385 tasi yoki 95,9 % faoliyat ko'rsatadi. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 50 753 taga yoki 29,4 % ga oshganligini ko'rish mumkin.


2019-yilning yanvar-oktabr oylarida Respublikamizda 52,2 mingtaga yaqin mas'uliyati cheklangan jamiyatlar yangi tashkil etildi, bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 22,0 mingtaga ko'pdir.

### Mas'uliyati cheklangan jamiyatlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda

	01.11.2019 yil		2019-yil yanvar-oktabr oylarida
	Ro'yxatdan o'tgan	Faoliyat ko'rsatayotgan	Yangi tashkil etilgan
<b>Jami</b>	<b>223 648</b>	<b>214 385</b>	<b>52 193</b>
<i>shundan:</i>			
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	19 927	18 819	4 268
Sanoat	45 604	43 830	10 133
Qurilish	27 954	26 923	6 728
Savdo	63 301	60 769	19 269
Tashish va saqlash	13 322	12 830	2 259
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	12 753	12 039	2 826
Axborot va aloqa	5 118	4 851	1 008
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	3 924	3 845	752
Boshqa turlari	31 745	30 479	4 950

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlarning eng ko'p jamidagi ulushi savdo 28,3 %, sanoat 20,4 %, qurilish 12,6 % va qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida 8,8 % ga to'g'ri keladi. Nisbatan kamlari esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish 1,8 %, axborot va aloqa 2,3 %, tashish va saqlash 6,0 % va boshqa faoliyat turlarida 14,2 % ga to'g'ri kelgan.

### Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlarning hududlar bo'yicha soni, birlikda



### Kichik korxonalar va mikrofirmalar

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2019-yil 1-noyabr holatiga Respublikamizda faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning soni 327,9 mingtani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich 2018-yil 1-noyabr holatiga qaraganda 26,7 % ga oshgan.

### Hududlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni, birlikda

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

	Kichik korxonalar va mikrofirmalar soni	shundan:	
		Kichik korxonalar	Mikrofirmalar
<b>O'zbekiston Respublikasi</b>	<b>327 871</b>	<b>22 091</b>	<b>305 780</b>
Qoraqalpog'iston Respublikasi	14 481	889	13 592
<i>viloyatlar:</i>			
Andijon	26 667	1 403	25 264
Buxoro	19 418	1 065	18 353
Jizzax	13 814	600	13 214
Qashqadaryo	19 985	1 083	18 902
Navoiy	14 151	637	13 514
Namangan	20 970	1 268	19 702
Samarqand	25 193	1 705	23 488
Surxondaryo	14 998	879	14 119
Sirdaryo	10 189	440	9 749
Toshkent	31 774	2 104	29 670
Farg'ona	28 844	1 742	27 102
Xorazm	15 092	924	14 168
Toshkent sh.	72 295	7 352	64 943

## Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning hududlar kesimida jamidagi ulushi (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning asosiy qismi, ya'ni 72,3 mingtasi (22,1 %) Toshkent shahri, 31,8 mingtasi (9,7 %) Toshkent, 28,8 mingtasi (8,8 %) Farg'ona hamda 26,7 mingtasi (8,1 %) Andijon viloyatlari hissalariga to'g'ri keladi.


Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko'rsatayotgan jami 327,9 mingta kichik korxonalar va mikrofirmalarning 97,0 mingtasi (29,6 %) - savdo, 68,9 mingtasi (21,0 %) - sanoat, 35,9 mingtasi (10,9 %) - qurilish, 28,2 mingtasi (8,6 %) - qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 7,6 mingtasi (2,3 %) - axborot va aloqa sohasi, 6,2 mingtasi (1,9 %) - sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 15,1 mingtasi (4,6 %) - tashish va saqlash hissalariga to'g'ri keladi.

**Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning  
iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi**  
*(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*



2019-yil yanvar-oktabr oylarida 79,2 mingdan ziyod kichik korxonalar va mikrofirmalar yangi tashkil etilgan. Bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan qaraganda 1,9 martaga ko'proqdir. Eng ko'p yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar Toshkent shahri (15 893 ta), Toshkent (8 035 ta), Samarqand (6 701 ta) va Farg'ona viloyatlari (6 092 ta) hissasiga to'g'ri keladi. Eng kam Sirdaryo (2 234 ta), Jizzax (3 130), Surxondaryo (3 848 ta), Navoiy (5 827) viloyatlarida hamda Qoraqalpog'iston Respublikasi (3 207 ta) tashkil etilgan.

**2019-yilning yanvar-oktabr oylarida yangi tashkil etilgan  
kichik korxonalar va mikrofirmalarning  
iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda**  
*(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida esa eng ko'pi savdoda (30 617 ta), sanoatda (17 025 ta), qurilishda (7 812 ta) va qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (5 992 ta) tashkil etilgan. Eng kam esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda (1 078 ta), axborot va aloqada (1 378 ta) hamda tashish va saqlashda (2 609 ta) tashkil etilgan.


### Oilaviy korxonalar

Yuridik shaxs sifatida davlat ro'yxatidan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2019-yilning 1-noyabr holatiga 26 189 tani tashkil etib, ulardan 25 151 tasi yoki 96,0 % faoliyat ko'rsatadi. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda davlat ro'yxatidan o'tganlarning hamda faoliyat ko'rsatayotganlarning umumiy soni o'rtacha 67,4 % ga oshganligini ta'kidlash lozim.


#### Oilaviy korxonalarning soni to'g'risida ma'lumot, birlikda

	01.11.2019 y.		2019 yil yanvar-oktabr
	Ro'yxatdan o'tgan	Faoliyat ko'rsatayotgan	Yangi tashkil etilgan
<b>O'zbekiston Respublikasi</b>	<b>26 189</b>	<b>25 151</b>	<b>10 463</b>
Qoraqalpog'iston Respublikasi	1 011	981	341
<i>viloyatlar:</i>			
Andijon	1 095	1 062	524
Buxoro	1 774	1 682	799
Jizzax	762	720	233
Qashqadaryo	1 208	1 176	552
Navoiy	2 689	2 658	1 991
Namangan	495	484	186
Samarqand	4 197	3 985	1 703
Surxondaryo	1 084	1 064	357
Sirdaryo	168	151	78
Toshkent	2 755	2 511	961
Farg'ona	3 638	3 604	947
Xorazm	2 413	2 317	1 140
Toshkent sh.	2 900	2 756	651

### Oilaviy korxonalar soni, birlikda



### Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarni hududlar kesimida soni, birlikda



Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda ularning 34,8 % yoki 8 753 tasi sanoat, 22,7 % yoki 5 706 tasi savdo, 21,0 % yoki 5 284 tasi yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlari, 9,8 % yoki 2 476 tasi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 1,1 % yoki 284 tasi qurilish, 1,0 % yoki 241 tasi tashish va saqlash, 1,0 % yoki 245 tasi sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 0,9 % yoki 220 tasi axborot va aloqa hamda 7,7 % yoki 1 942 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarni  
iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, %




Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ko'rsak, eng ko'pi sanoat hamda savdoda, eng kami esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, axborot va aloqa kabi faoliyat turlari hissalariga to'g'ri keladi.

**2019-yilning yanvar-oktabr oylarida yangi tashkil etilgan  
oilaviy korxonalar soni, birlikda**

	<b>Korxonalar soni</b>	<b>Jamiga nisbatan ulushi, %</b>
<b>O'zbekiston Respublikasi</b>	<b>10 463</b>	<b>100,0</b>
Qoraqalpog'iston Respublikasi	341	3,3
<i>viloyatlar:</i>		
Andijon	524	5,0
Buxoro	799	7,6
Jizzax	233	2,2
Qashqadaryo	552	5,3
Navoiy	1 991	19,0
Namangan	186	1,8
Samarqand	1 703	16,3
Surxondaryo	357	3,4
Sirdaryo	78	0,7
Toshkent	961	9,2
Farg'ona	947	9,1
Xorazm	1 140	10,9
Toshkent sh.	651	6,2

2019-yil yanvar-oktabr oylarida 10,5 mingga yaqin oilaviy korxonalar yangi tashkil etilgan. Bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan qaraganda 2,7 martaga ko'proqdir. Eng ko'p yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar Navoiy (1 991 ta), Samarqand (1 703 ta), Xorazm (1 140 ta) va Farg'ona viloyatlari (947 ta) hissasiga to'g'ri keladi. Eng kam Sirdaryo (78 ta), Jizzax (233 ta) hamda Namangan (186 ta) viloyatlarida tashkil etilgan.

### 2019-yil yanvar-oktabr oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi




Yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda ularning 32,9 % yoki 3 440 tasi sanoat, 31,0 % yoki 3 247 tasi savdo, 19,3 % yoki 2 021 tasi yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlari, 9,2 % yoki 964 tasi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 0,7 % yoki 73 tasi qurilish, 0,7 % yoki 76 tasi sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 0,6 % yoki 65 tasi tashish va saqlash, 0,7 % yoki 68 tasi axborot va aloqa hamda 4,9 % yoki 509 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

### Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar


2019-yil 1-noyabr holatiga faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni 9 985 tani tashkil etdi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan 2 830 taga yoki 39,6 % ga o'sgan.

2019-yil 1-noyabr holatiga xorijiy kapital ishtirokida 9 985 ta korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, bu korxonalar va tashkilotlarning eng yuqorisi Toshkent shahri (5 917 ta), Toshkent (1 099 ta), Samarqand (516 ta), Farg'ona (398 ta), Surxondaryo (320 ta), Andijon (291 ta), Buxoro (265 ta) va Namangan (209 ta) viloyatlari hissasiga to'g'ri keladi. Nisbatan kamlari Xorazm (126 ta), Sirdaryo (149 ta), Qashqadaryo (182 ta), Jizzax (181 ta), Navoiy (188 ta) viloyatlari hamda Qoraqalpog'iston Respublikasiga (144 ta) to'g'ri keladi.

### Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning soni, birlikda




## Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining davlatlar kesimida soni, birlikda




Shuningdek, xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalardan 4 993 tasi qo'shma korxonalar, 4 992 tasi esa xorijiy korxonalar hisobiga to'g'ri keladi.

Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar tarkibida qo'shma korxonalar va xorijiy korxonalar soni, birlikda



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar ulushi, %




**Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi  
korxonalar va tashkilotlar soni, birlikda**

	Jami	shundan:	
		Qo'shma korxonalar	Xorijiy korxonalar
<b>O'zbekiston Respublikasi</b>	<b>9 985</b>	<b>4 993</b>	<b>4 992</b>
Qoraqalpog'iston Respublikasi	144	82	62
<i>viloyatlar:</i>			
Andijon	291	154	137
Buxoro	265	152	113
Jizzax	181	118	63
Qashqadaryo	182	135	47
Navoiy	188	115	73
Namangan	209	138	71
Samarqand	516	366	150
Surxondaryo	320	102	218
Sirdaryo	149	102	47
Toshkent	1 099	591	508
Farg'ona	398	276	122
Xorazm	126	81	45
Toshkent sh.	5 917	2 581	3 336

## Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar

2019-yilning yanvar-oktabr oylarida xorijiy kapital ishtirokidagi yangi tashkil etilgan korxonalarining soni 2 804 tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 905 taga ko'paygan. Hududlar kesimida, xorijiy kapital ishtirokidagi yangi tashkil etilgan korxonalarining asosiy qismi Toshkent shahar (1 522 ta yoki jamidagi ulushi 54,3 %), Toshkent viloyati (257 ta yoki 9,2 %) va Surxondaryo viloyatlari (145 ta yoki 5,2 %) hissalariga to'g'ri keladi. Eng kam xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar Qoraqalpog'iston Respublikasi (30 ta yoki 1,1 %), Sirdaryo viloyati (43 ta yoki 1,5 %) va Xorazm viloyati (56 ta yoki 2,0 %) hissalariga to'g'ri keladi.


### 2019-yilning yanvar-oktabr oylarida yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining davlatlar kesimidagi soni, birlikda



Rossiya Federatsiyasi rezidentlari kapitali ishtirokida - 414 ta, Turkiya Respublikasi - 372 ta, Xitoy Xalq Respublikasi - 491 ta, Qozog'iston Respublikasi - 278 ta va Koreya Respublikasi - 186 ta korxonalar yangi ro'yxatdan o'tgan. Shuningdek, 2019-yil yanvar-oktabr oylarida Afg'oniston Islom Respublikasi, Hindiston Respublikasi, Germaniya Federativ Respublikasi, Ukraina, Ozarbayjon Respublikasi va boshqa davlatlar rezidentlari qo'shma faoliyatga qiziqish bildirdilar.

Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, asosan sanoat (849 ta yoki 30,3 %), savdo (814 ta yoki 29,0 %), qurilish (316 ta yoki 11,3 %), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi (215 ta yoki 7,7 %), yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar (128 ta yoki 4,6 %) faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi. Eng kamlari esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda (43 ta yoki 1,5 %), axborot va aloqa (64 ta yoki 2,3 %) hamda tashish va saqlashda (71 ta yoki 2,5 %) tashkil etgan.

**2019-yilning yanvar-oktabr oylarida yangi tashkil etilgan  
xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning  
iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda**



**O'zbekiston Respublikasida MDH davlatlarining kapitali ishtirokida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni, birlikda**

	Jami	shundan:	
		Qo'shma korxonalar	Xorijiy korxonalar
Rossiya Federatsiyasi	1776	1096	680
Qozog'iston Respublikasi	766	388	378
Ozərbayjon Respublikasi	172	65	107
Qirg'iziston Respublikasi	150	86	64
Tojikiston Respublikasi	150	87	63
Turkmaniston Respublikasi	141	65	76
Ukraina Respublikasi	122	76	46
Belorus Respublikasi	69	43	26
Armaniston Respublikasi	31	18	13
Moldova Respublikasi	22	7	15

O'zbekiston Respublikasida MDH davlatlarining kapitali ishtirokidagi korxonalarining asosiy ulushi (*jami xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalariga nisbatan*) Rossiya Federatsiyasi 17,8 %, Qozog'iston Respublikasi 7,7 %, Ozarbayjon Respublikasi 1,7 %, Qirg'iziston va Tojikiston Respublikalarida 1,5 % ga to'g'ri kelmoqda.

## Statistik ko'rsatkichlarga izohlar

**Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri** - axborot-ma'lumotnoma tusidagi, vaqti-vaqti bilan yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan avtomatlashtirilgan tizim hisoblanadi hamda yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxonalar va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta'minlaydi.

**Ro'yxatga olingan** - ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestrda mavjud bo'lgan yuridik shaxslar (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

**Faoliyat ko'rsatayotgan** - ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda davlat statistika organlariga moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to'g'risidagi ma'lumot kelib tushmagan yuridik shaxslar.


**Faoliyat ko'rsatmayotgan** - ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan, moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotgan yoki belgilangan muddatda ustav jamg'armalarini shakllantirmagan hamda tugatish jarayonida bo'lganligi haqida ma'lumotlar mavjud bo'lgan yuridik shaxslar.

**Yangi tashkil etilgan** - ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda yuridik shaxslarning davlat reestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslar.

**Faoliyati tugatilgan** - ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan yuridik shaxslarning davlat reestriga yuridik shaxsni tugatilganligi to'g'risidagi yozuv kiritilgandan so'ng bu haqida davlat statistika organlariga ma'lumot taqdim etilgan yuridik shaxslar.

**Kichik korxonalar va mikrofirmalar** - O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016-yil 24-avgustdagi "Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida" 275-sonli qarorining 1-ilovasiga muvofiq kichik tadbirkorlik subyektlariga ajratiladi.

## Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri



Tashqi foydalanuvchilar, bevosita Davlat statistika qo'mitasining [www.stat.uz](http://www.stat.uz) rasmiy saytida real vaqt rejimida, so'ralayotgan yuridik shaxsning (STIR) kodini kiritib, axborotlarni bepul olishlari mumkinligi belgilab qo'yilgan.

**Statistik registrlarni yuritish va tizimli  
xizmat ko'rsatish boshqarmasi**  
Tel.:71-230-80-90 (91)